

**LAYLO RAUPOVA**



**OLIV TA'LIM  
MUASSASALARIDA  
AMALGA OSHIRILAYOTGAN  
INNOVATSION FAOLIVAT**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY RASSOMLIK VA  
DIZAYN INSTITUTI**

**L.R.RAUPOVA**

**OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA  
AMALGA OSHIRILAYOTGAN  
INNOVATSION FAOLIVAT**

*monografiya*

**Toshkent  
"INNOVATSIYA-ZIYO"  
2019**

UDK: 378  
BBK: 74.58  
R- 28

**Raupova Laylo**

**Oliy ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan innovatsion faoliyat  
/monografiya/ Toshkent: "INNOVATSIYA-ZIYO", 2019, 66 b.**

Mazkur monografiyada respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan innovatsion faoliyat hamda muzkur faoliyatni takomillashtirish orqali ta'lim xizmatlari sifatini oshirish, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar va takliflar ishlab chiqilgan. Monografiyada oliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish uchun oliy ta'lim muassasasining ilmiy-pedagogik salohiyati, moddiy-texnik bazasining tugan o'rni tahlil qilinib, ta'lim muassasasi faoliyatining samaradorligini oshirishda innovatsion izlanishlardan keng va samarali foydalanish imkoniyatlarining shakli va metodlari atroflicha yoritilgan hamda tegishli yo'l-yo'riqlar keltirilgan.

This monograph has been developed scientifically based conclusions and recommendations on improving the quality of educational services by improving the quality of educational services, as well as the training of competitive specialists in higher education institutions. Final work reflects the role of scientific and pedagogical potential, material and technical basis of higher education institutions in improving the effectiveness of innovation activities, describing forms and methods of broad and effective access to innovative research to improve the effectiveness of educational institutions and provides relevant guidelines.

**Taqrizchilar:**

**Saodat Muxamedova**

filologiya fanlari doktori, professor

**Muyassar Saparniyozova**

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Монотрофия Камолiddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn  
institutini Kenzauu qapopu bilim naupza maocuu эмунган**

ISBN 978-9943-5868-9-5

© Raupova L., 2019

© "INNOVATSIYA-ZIYO", 2019

**KIRISH**

**Monografiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.**  
O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy-ma'naviy sohalaridagi rivoji fan hamda ta'lim integratsiyasini yanada kuchaytirish, fanlarning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligiga erishishning yangi bosqichlariga ko'tarilishni dolzarb vazifa qilib qo'yimoqda. Ma'lumki, "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" da aholi farovonligini ta'minlash va turmush sifatini yaxshilash, jamiyat va davlatni har tomonlama rivojlantirish, mamlakatni modernizatsiya qilish va hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha aniq maqsadlar, vazifalar belgilandi. Keyingi yillarda jamiyatning barcha sohalarida bo'lgani kabi oliy ta'lim tizimida ham innovatsion faoliyatni rivojlantirishga bo'lgan talab, e'tibor sezilarli darajada ortdi, sifat va miqdor ko'rsatkichlari o'zgaradi, ishga qabul qiluvchilar nafaqat xodimning kasbiy mahoratiga, balki uning zamonaviy innovatsion g'oyalarni egallaganlik darajasiga ham e'tibor qaratmoqda. Shunday ezgu maqsadlarni ro'yobga chiqarish yo'lida oliy ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan muhim talablardan biri

– oliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatni tizimli, izchil rejalashtirish va uni amalga oshirishni taqozo etmoqda. Mavjud muammolarni hal qilish, shuningdek, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash, innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar, ilmiy yutuqlarni amaliyotga keng joriy etishning institutsional va tashkiliy-huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi Farmon qabul qilindi. Farmonda strategik rejalashtirish tizimini yaratish, davlat boshqaruvining innovatsion shakllarini amalga kiritish, fan va innovatsiya faoliyatini rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini shakllantirish, investitsiyalarni keng jalb qilish, huquqiy bazani takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ijtimoiy va iqtisodiy hayotning dolzarb sohalariga ilg'or texnologiyalarni joriy etish kabi mamlakat innovatsion rivojlanishining asosiy yo'nalishlari belgilab berildi. Respublikamiz oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning